

TIQXMMI Buxoro filiali OTM filiallari reytingida 1-o'rinda!

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida oliy ta'lim muassasalari milliy reytingini e'lon qilishga bag'ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi. Anjuman davomida joriy yilda ilk marotaba oliy ta'lim muassasalari filiallari reytingi e'lon qilindi. Reyting natijalariga ko'ra, yuqori o'rinlarni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali 1-o'rinni egalladi. Qayd etish lozim, mazkur reytinglarni tuzishdan maqsad filiallarning ta'lim sifatiga bo'lgan hisobdorligini oshirish va ularni ta'lim sifatini oshirish bo'yicha mehnatlarini rag'batlantirishdir.



Mazkur reyting talabalarning bilim darajasi, filial ilmiy salohiyati, bitiruvchilarning ish bilan taminlanganlik holati va yana bir qator kategoriyalar inobatga olingan. Mazkur yuksak e'tirof bilan TIQXMMI Buxoro filiali professor-o'qituvchilari jamoasini va ishchi-xodimlarini chin yurakdan qutlaymiz. Kelayotgan yil yakunlarida ham xuddi shu kabi e'tirofga yana bir bora sazovor bo'lishimiz uchun yuqori darajada ishlashni davom ettirishimiz shart!

TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati